



BOSHLANG‘ICH SINF MATEMATIKA DARSALARIDA MANTIQIY  
MASALALAR YECHISHDA O‘YIN VA INTERAKTIV METODLARDAN  
FOYDALANISH

UMAROVA ZULFIZAR OTABEK QIZI

Navoiy davlat universiteti Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim  
fakulteti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf matematika darslarida mantiqiy masalalar ahamiyati va ularni yechishda o‘yin va interaktiv metodlardan samarali foydalanish masalasi yoritilgan. Tadqiqotda dars jarayonida o‘quvchilarning qiziqishlarini oshirish, ularning mustaqil va kreativ fikrlashini shakllantirish hamda o‘quv materialini o‘zlashtirishga yordam beruvchi didaktiv metodlar va interaktiv yondashuvlarning o‘rnini tahlil qilinadi. Muallif tomonidan mantiqiy masalalarni yechishda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan metodlar taklif etilib, ularning ta’limiy samaradorligi ilmiy –nazariy asoslar bilan izohlanadi.

**Kalit so‘zlar:** mantiqiy masala, boshlang‘ich ta’lim, interaktiv metodlar, innovatsion yondashuvlar, kognitiv rivojlanish.

**Аннотация.** В данной статье подчеркивается важность логических задач на уроках элементарной математики и эффективное использование игр и интерактивных методов при их решении. В исследовании анализируется роль дидактических методов и интерактивных подходов, которые помогают повысить интерес учащихся, сформировать их самостоятельное и творческое мышление, освоить учебный материал в ходе урока. Автор предлагает методы, которые можно использовать для решения логических задач, а их образовательная эффективность объясняется научно-теоретическими основаниями.

**Ключевые слова:** логическая задача, начальное образование, интерактивные методы, инновационные подходы, познавательное развитие.

**Abstract.** This article discusses the importance of logical problems in elementary mathematics lessons and the effective use of game and interactive methods in solving them. The study analyzes the role of didactic methods and interactive approaches in increasing students' interest in the lesson, forming their independent and creative thinking, and helping them master the educational material. The author proposes methods that can be used to solve logical problems, and their educational effectiveness is explained by scientific and theoretical foundations.

**Keywords:** logical problem, primary education, interactive methods, innovative approaches, cognitive development.

**KIRISH.** XXI asrda zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning mustaqil va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



sinf o‘quvchilari uchun qiziqarli va faol o‘rganish muhiti yaratish ularning bilimlarni samarali o‘rganishga yordam beradi. Boshlang‘ich sinflarda mantiqiy masalalarini yechish bu jarayonning muhim qismidir. An’anaviy darslar bilan bir birgalikda, o‘yin va interaktiv metodlardan foydalanish ta’lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, interaktiv metodlar va o‘yin texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirishda va kreativ fikrlashini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Mantiqiy masalalarning boshlang‘ich ta’limdagi roli: Mantiqiy masalalar o‘quvchilarning fikrlash jarayonini rivojlantirish bilan birga, quyidagi ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Analitik fikrlash – muammolarni turli nuqtayi nazardan tahlil qilish va ularga yechim topish qobiliyat;

Muammoli vaziyatlarda yechim topish-o‘quvchilarning mantiqiy xulosalar chiqarish qobiliyatini rivojlantirish;

Ijodiy tafakkur – yangicha yechimlar topishga undash;

Tahliliy fikrlash- sabab- oqibat bog‘liqliklarini tushunishga yordam beradi.

**Asosiy qism.** An’anaviy dars jarayonida mantiqiy masalalar yetarlicha o‘zlashtirilmay qolishi mumkin. Shu sababli boshlang‘ich sinf matematika darslarida mantiqiy masalalar yechish jarayonida o‘yin va interaktiv metodlarni kiritish muhim ahamiyatga ega. O‘yin va interaktiv metodlarning ta’lim jrayonidagi o‘rni. Bolalar tabiatan o‘yinga qiziqadi. Shu sababdan ta’lim jarayonida o‘yin elementlarini qo‘llash ularning kognitiv rivojlanishiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi. Didaktik o‘yinlar orqali o‘quvchilarning darsda diqqatini jamlash, ijodiy fikrlashini rivojlantirish va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish mumkin.

### **O‘yin texnologiyalarining afzalliklari va qo‘llanishi:**

O‘quvchilarning dars jarayoniga bo‘lgan qiziqishini oshiradi;

Tafakkur jarayonini faollashtiradi;

O‘z fikrini aniq bayon qilishga o‘rgatadi;

Guruhsda ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Boshlang‘ich sinf matematika darslarida mantiqiy masalalarini yechishda ularning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib quyidagi o‘yinlardan foydalanish mumkin:

1.”Kim tez?” – o‘quvchilarning mantiqiy masalani kim birinchi bo‘lib yechishiga asoslangan musobaqa usuli.

2.”Senariy asosida masala” – o‘quvchilarga ertak yoki real hayotiy vaziyat asosida mantiqiy masala berilib, uni yechish talab qilinadi. Yoki o‘quvchilaga ertak asosida masala tuzish topshirig‘i beriladi.

3.”Juftlikda ishlash”- ikki o‘quvchi birgalikda maslani yechishga harakat qiladi. Bu esa ularni hamkorlikda ishlashga o‘rgatadi.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'YALAR



4.”Topishmoq va jumboq” – o‘quvchilar mantiqiy topishmoqlar va jumboqlar orqali muammoli vaziyatlarni hal qilishadi. Bu ularning fikrlash tezligini oshirishga yordam beradi.

5.”Matematik kvest” – guruh yoki individual ravishda turli bosqichlardan iborat mantiqiy masalarni yechish orqali muammoli vaziyatlarni hal qilish.

7.”Rolli o‘yinlar” – o‘quvchilar real hayotiy vaziyatlarda qanday mantiqiy yechim topish mumkinligini o‘rganadilar.

**Interaktiv metodlarning samaradorligi va qo‘llanishi.** Interaktiv metodlar o‘quvchilarning bilim olish jarayonida faol ishtirok etishini ta’minlaydi. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi muloqotni kuchaytiradi. Quyidagi interaktiv yondashuvlar boshlang‘ich sinf matematika darslarida mantiqiy masalalarni yechishda samarali hisoblanadi:

1. Muammoli savollar- o‘quvchilarga oldindan tayyorlangan qiyin savol beriladi va ular jamoaviy muhokama orqali to‘g‘ri javob topishadi.

2. Fikrlar xaritasi – o‘quvchilar masalani turli yo‘llar bilan hal qilish imkoniyatlarini izlashadi.

3. Online platformalar- elektron ta’lim resurslari yordamida mantiqiy masalalarni vizual yechish.

Bu metodlar bolalarning o‘z bilimlarini faol shakllantirishiga va mustakamlashga yordam beradi. Pedagogik tajribakar shuni ko‘rsatadiki, o‘yin va interaktiv metodlardan foydalangan holda dars tashkil qilinganda, o‘quvchilarning darsga bo‘lgan ishtiyoqi ortadi, mantiqiy masalarni tushunish va yechish qobiliyati 40 foizga yaxshilanadi, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv shakllanadi. Bundan tashqari o‘quvchilar jamoaviy ishga o‘rganib, birgalikda ishslash ko‘nikmalarini rivijlantiradilar.

**XULOSA.** Boshlang‘ich sinflarda mantiqiy masalarni yechish jarayonida o‘yin va interaktiv metodlardan foydalanan bolalarning qiziqishini oshirib ularning tafakkurini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Shu bois, o‘qituvchilar quyidagilarga e’tibor berishlari lozim:

Darslarni qiziqarli o‘yin elementlari bilan boyitish;

Interaktiv metodlarlar va innovatsion yondashuvlardan foydalanan orqali o‘quvchilarning faolligini oshirish;

O‘quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda ularga mos keluvchi mantiqiy masalalarni tanlash.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Azizzoxjayeva.N.(2019) ”Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat””.
2. Zokirova.D .(2021) ”Boshlang‘ich sinflarda innovatsion ta’lim metodlari”.
3. Dewey.J.(1938) ”Experience and education”.
4. Hasanboyev.J.(2003) ”Boshlang‘ich ta’lim metodikasi”.
5. Pigaet.J.(1952) ”The origins of intelligence in children”.
6. Jonboyev.M.(2020) ”Maktab ta’limida mantiqiy tafakkurni rivojlantirish masalalari”.

